O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

ISAQOVA MO‘NISA QAXRAMONJON QIZI

XALQARO HUQUQIY TERMINLAR VA ULARNING MILLIY YURIDIK TILGA TA’SIRI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 81 373.46.340.

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Isaqova Mo‘nisa Qaxramonjon qizi
Xalqaro huquqiy terminlar va ularning milliy yuridik tilga ta’siri 3

Isakova Munisa Qaxramonjon qizi
International legal terms and their influence on the national legal language..... 25

Исакова Муниса Кахрамонжон кизи
Международные правовые термины и их влияние на национальный юридический язык..... 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 52

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

ISAQOVA MO‘NISA QAXRAMONJON QIZI

XALQARO HUQUQIY TERMINLAR VA ULARNING MILLIY YURIDIK TILGA TA’SIRI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.2.PhD/Fil2380 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti veb-sahifasining www.tai.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Kuchimov Shuxrat Norqizilovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Yuldashev Ma’rufjon Muhammadjonovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Azimov Inomjon Mamasodikovich filologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «9» aprel soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz tor ko‘chasi, 5-uy. Tel.: (871) 233-36-50, faks: (871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (22 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 700100, Toshkent shahri, Ziyolilar ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 262-74-58.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “20” mart da tarqatildi.
(2025-yil “20” mart dagi 7 raqamli reyestr bayonnomasi)

N.M. Mahmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

A.M. Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, f.f.b.f.d. (PhD)

D. S. Xudayberganova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida terminologiya va terminologik birliklar, ularning til leksikasida tutgan o‘rni, semantik, funksional vazifalari doirasida ko‘plab ilmiy-nazariy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ammo shuday bo‘lsa-da, bu muammo doirasidagi ayrim masalalar hanuzgacha to‘la o‘z yechimini topgani yo‘q. Sababi hozirgi globallashgan dunyoda ilm-fan va jamiyatning tez sur’atlar bilan rivojlanishi natijasida har bir soha terminologiyasiga ko‘plab yangi tushunchalar kirib kelmoqda. Shu bois ularga qanday talablar asosida nom berish, bunda xalqaro va milliy til mezonlarining o‘rni va ta’siri kabi masalalarni bugungi zamon talablaridan kelib chiqqan holda lingvistik tadqiq etish, shu asosda ularni tartibga solish (unifikatsiyalash va standartlashtirish) dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida ham huquqshunoslik va tilshunoslik fanlari integratsiyasi natijasida yurislingvistika sohasining paydo bo‘lishi yuridik tilni takomillashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, qonunchilik uslubiyati, shuningdek, soha terminlarini chuqur o‘rganishni taqazo qilmoqda. Bundan tashqari, ma’lum bir soha terminologiyasi haqida gap ketganda, uning shu soha tilidagi boshqa til birliklari bilan o‘zaro munosabati, umuman, terminlarning soha tili va milliy til rivojida tutgan o‘rni kabi masalalar juda muhim hisoblanadi. Ayniqsa, bu muammolarni lisoniy aspektdagina emas, bir necha fanlar kesimida, ya’ni fanlararo yo‘nalishda (jumladan tilshunoslik+huquqshunoslik, tilshunoslik+diplomatik bilimlar, tilshunoslik+axborot texnologiyalari kabilar) o‘zaro integratsiyalashgan holda tadqiq etish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda yangi O‘zbekistonda huquqiy demokratik, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash nuqtayi nazaridan davlat tili, o‘zbek yuridik tili va huquqiy terminologiyasini tadqiq etish muhim vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, xalqaro huquqiy terminlar, ularning shakllanishi va taraqqiyoti, xalqaro huquqiy tushunchalarga o‘zbek tilida nom tanlash, bunda xalqaro tillar va o‘zbek tilining o‘rni va ta’siri kabi masalalarni ilmiy asosda ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta’kidlaganidek, “globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning muqobillarini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib turibdi”[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[2], 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son

[1] Mirziyoyev Sh. Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli/ Prezident Sh Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so‘zi, 2019-yil 22-oktyabr.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-okytabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va

“Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[3], 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi[4] farmon va qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida huquqiy terminologiya muammolari Oksford universiteti professorlari Z.Konrad va H.Kotz[5], belgiyalik olim I.Paenson[6], Nyu-Yorklik professorlar M.Bassiouni[7], J.Dugard[8] tomonidan tadqiq qilingan. Shuningdek, mazkur soha rus olimlari G.Danilenko, I.Lukashuk, N.Ushakov, S.Xijnyak, N.Mixaylovskaya, V.Morshchakova, D.Gagikovna, V.Ikonnikova[9] tomonidan monografik planda o‘rganilgan.

O‘zbekistonda yuridik til va yuridik terminologiya masalalari bo‘yicha huquqshunos olimlar: A.Saidov, F.Bakirov, G‘Ahmedov, L.Karimova, X.Xayitov, G.Sarkisyants, L.Boyko: tilshunos olimlar: N.Mahmudov, Sh.Ko‘chimov, G‘.Satimov, M.Qosimova, G.G‘ulomova, O.Tursunova, N.Jumaxo‘jayev, R.Mirzayev, P.Nishonov, E.Sobirova, J.O‘rozov kabi olimlar tomonidan ham tadqiqot ishlari olib borishgan[10]. Sud nutqi va leksikasi bo‘yicha Q.Mo‘ydinov

---

mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son farmoni.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son farmoni.

[5] Konrad Z and Kotz H. An introduction to comparative law. – New-York: Oxford University press, 1998. – 744 p.

[6] Paenson I. Manual of the Terminology of Public International Law(Peace) and International Organizations. –Brussels, 1983. – 894 p.

[7] Bassiouni M. International extradition: United States law and practice. – New York: Oceana Publications, 1996. –1328 p.

[8] Dugard J and Christine W. International criminal law and procedure. – New York: Aldershot, 1996. – 524 p.

[9] Даниленко Г. Обычай в современном международном праве. – М.: Наука, 1988. – С. 190; Лукашук. И. Нормы международного права в международной нормотивной системи. – М.: Спарк 1997. – С.332; Ушаков.Н. Проблемы теории международного права. – М.: Наука, 1988. – С.186; Хижняк С. Юридическая терминология: формирование и состав. – М.: Наука, 1997. – С. 136; Михайловская Н. Формировании и функционировании юридической лексики // Терминология и культури речи. – М.: Наука, 1981. – С. 110-122; Морщакова Т. Семантические характеристики терминов уголовного закона (на материале русского немецкого и английского языков): Авторефер. дисс.... канд. филол. наук. – М., 1992. – С. 197; Гагиковна Д. Динамика становления и развития терминосистемы международного гуманитарного права (на материале английского и русского языков): Авторефер. дисс. … канд. филол. наук. – М., 2020. – С. 185; Иконникова В. Особенности семантики английских юридических терминов в текстах международного конрактного права. Авторефер. дисс. … канд. филол. наук. – М., 2005. – С. 148.

[10] Саидов А., Саркисянц Г. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Адолат, 1994; Саидов А., Саидова Л., Кўчимов Ш., Қосимова М. Қонун ва тил. – Тошкент: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1997; Бакиров Ф. Юридик терминлар луғати. – Тошкент, 1959; Ғ.Аҳмедов ва бошқ. Юридик атамалар ва иборалар луғати. – Тошкент: Адолат, 1993; Сатимов Ғ. Инглизча-русча-ўзбекча ҳуқуқий атамалар луғати. – Тошкент: Адолат, 1999; Бойко Л. Законодательная техника (теория и практика): Автореф. дисс. … канд. юридик. наук. – Тошкент, 1984; Касымова М. Структурно-системные особенности юридической терминологии узбекского

tomonidan tadqiqot ishi yaratilgan[11]. Qonun ijodkorligida yurislingvistikaning tutgan o‘rni haqida X.Hayitov[12], yuridik hujjatlarning predikativlik xususiyati haqida K.Qayumova[13] tomonidan maxsus tadqiqot ishi yaratilgan. Davlat tilida ish yuritish, yuridik hujjatlarni lingvistik bilimlar asosida tahlil qilish, ularning til va uslubi xususida M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudov, Y.Odilov[14] tadqiqot olib borganlar.

O‘zbekistonda xalqaro huquq terminologiyasi huquqshunos va tilshunos olimlar tomonidan maxsus monografik planda deyarli o‘rganilmagan. Uning ayrim jihatlari o‘zbek olimlaridan A.Saidov[15], X.Odilqoriyev[16], B.Ochilov, A.Mamatqulovlarning[17] tadqiqotlarida umumiy tarzda bayon etilgan.

O‘zbekistonda xalqaro huquq terminologiyasi maxsus monografik tarzda tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, uning ayrim jihatlari o‘zbek yuridik terminlarini boshqa tillar bilan qiyosiy-tipologik planda o‘rganilgan ishlarda ko‘rish mumkin. Jumladan, N.Jumaniyozova ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskurs xususiyatlarini pragmalingvistik aspektda tadqiq qilgan[18], M.Baxriddinova nemis va o‘zbek tillarida yuridik terminlarning leksikografik jihatlarini o‘rgangan[19], U.Po‘latova esa ingliz va o‘zbek tillarida yuridik terminlarni qiyosiy jihatdan tahlil qilgan[20]. Bu o‘rinda shuni alohida qayd etish lozimki, tilshunos olimlar H.Bektemirov, H.Xolmedov, S.Sodiqov tomonidan “Huquqshunoslikka oid

---

языка: Авторефер. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1986; Каримова Л. Правовые и нравственные аспекты законов о языке: Авторефер. дисс.... канд. юрид. наук. – Тошкент, 1991; Кўчимов Ш. Ўзбекистон Республикаси қонунларининг тили: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1995. – Б. 209; Ғуломова Г. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 216; Турсунова О. Ўзбек давлатчилиги тарихида қўлланилган ҳуқуқий терминларнинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 245; Жумахўжаев Н. Қонун тили мезонлари. –Тошкент, 2010. – Б. 71; Хайитов Х. Қонун ижодкорлигида юридик лингвистиканинг ўрни ва аҳамияти: Юрид. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011. – Б. 206; Мирзаев Р. Ўзбекистон Республикаси давлат тилининг ҳуқуқий мақоми: Юрид. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 209; Кўчимов Ш. Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари (лингво-юридик таҳлил): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 271; Нишонов П. Француз ва ўзбек юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 136; Сабирова Э.Ш. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” да ҳуқуқий терминларнинг берилиши: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри. (Phd) ... дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 145; O‘rozov J. O‘zbek tilining lingvokriminalistik tadqiqi: Filol.fan.bo‘yicha fals. d-ri. (Phd) … diss. – Toshkent, 2023. – B. 142.

[11] Мўйдинов Қ.Ўзбек тили суд нутқи лексикаси: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 145.

[12]Ҳайитов Х. Қонун ижодкорлигида юридик лингвистиканинг ўрни ва аҳамияти. Юридик фан. ном... дисс. –Тошкент, 2011. – Б. 206.

[13]Қаюмова К. Предикативликнинг синтактик-семантик хусусиятлари (халқаро ҳуқуқ ҳужжатлари инглиз, ўзбек ва рус тиллари материаллари қиёсий таҳлили асосида). Филол.фан. бўйича фалс. д-ри. (PhD)…дисс. – Тошкент, 2019. – Б.154.

[14] Аминов М., Мадвалиев А.,Маҳкамов Н., Маҳмудов Н., Одилов Ё. Давлат тилида иш юритиш: амалий қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 528.

[15] Saidov A. Xalqaro huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2001; Lukashuk I., Saidov A. Hozirgi zamon xalqaro huquq nazariyasi asoslari (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007; Saidov A. Xalqaro huquq chizmalar va ta’riflarda. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Adolat, 2001. – B. 392.

[16] Odilqoriyev X., Ochilov B. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (ommaviy huquq). Darslik. – Toshkent, 2002. – B. 182.

[17] Mamatqulov A. Xalqaro huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 1997.

[18] Jumaniyozova N. Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskursning pragmalingvistik xususiyatlari: Filol.fan. bo‘yicha. fals. d-ri (Phd) … diss. – Toshkent, 2023. – B. 153.

[19] Baxriddinova M. Nemis-o‘zbek tillari yuridik terminlarining leksikografik tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha fals. d-ri (Phd) … diss. – Andijon, 2023. – B. 136.

o‘zlashma terminlar” lug‘ati ishlab chiqilgan[21]. Lug‘atda o‘zbek tiliga boshqa tillardan o‘zlashgan 800 ga yaqin xalqaro terminlarning izohi berilgan. Shuningdek, professor A.Madvaliyev, N.Sadinova, A.Saidno‘monovlarning “Ish yuritish terminlarining qisqacha izohli lug‘ati”da ayrim xalqaro huquqiy terminlar mufassal izohlangan[22]. Shuningdek, “Xalqaro terminelementlarning izohli-illyustrativ lug‘ati”ga xalqaro terminelementlar bilan yasalgan ayrim xalqaro huquqiy terminlar ham kiritilgan[23].

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti O‘zbek tili yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek tilshunosligining zamonaviy yo‘nalishlari:muammo va yechimlar” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek qonunchiligida qo‘llanayotgan xalqaro huquqiy terminlarni yurislingvistik tadqiq etish, shu asosda ularni o‘zbek tiliga o‘zlashtirishning usul va tamoyillarini aniqlash va ularni tartibga solish (unifikatsiyalash va standartlashtirish) dan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: xalqaro huquqiy terminlarning shakllanishi va taraqqiyotini diaxron va sinxron aspektda tahlil qilish;

xalqaro huquqiy terminlarning o‘zbek yuridik tiliga ta’sirini o‘rganish;

xalqaro huquqiy terminlarning milliy yuridik tilga o‘zlashtirish usullarini belgilash;

xalqaro huquqiy terminlarning milliy yuridik tilga o‘zlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish;

xalqaro huquqiy terminlarni qiyosiy o‘rganish;

o‘zbek yuridik tilida xalqaro huquqiy terminlarni tartibga solish (unifikatsiyalash va standartlashtirish) bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari, xalqaro shartnomalar va huquqshunoslikka oid lug‘atlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmeti xalqaro huquqiy terminlarning shakllanishi, milliy yuridik tilga o‘zlashtirilishi va leksikografik xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsiflash, etimologik, diaxron, qiyosiy-tarixiy, tasniflash, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilshunosligida xalqaro huquqiy terminlarga munosabat, yuridik matnga yurislingvistik yondashuv, bu sohada tilshunoslik va huquqshunoslik fanlari integratsiyasiga asoslangan tadqiqotlarning paydo bo‘lishi hamda jadal rivojlanayotganligi yoritilgan;

---

[20] Po‘latova U. Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik terminlarning chog‘ishtirma tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha fals. d-ri (Phd) … diss. – Andijon, 2023. – B. 140.

[21] Бектемеров Ҳ., Холмедов Ҳ., Содиқов С. Ҳуқуқшуносликка оид ўзлашма терминлар. – Тошкент: Адолат, 1999.

[22] Madvaliyev A., Sadinova N., Saidno‘monov A. Ish yuritish terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomdagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024.

[23] Мадвалиев. А, Маҳкамов Н., Мираҳмедова З., Саиднўмонов А. Халқаро терминелементларнинг изоҳли-иллюстратив луғати. – Тошкент: Донишманд зиёси, 2020.

xalqaro huquqiy terminlarning shakllanishi, taraqqiyoti diaxron va sinxron jihatdan tahlil qilinib, ularning rivojlanish mexanizmi va tendensiyalari ochib berilgan;

dunyo tillarida xalqaro huquqiy terminlar tizimi, o‘zlashtirish usullari, tuzilishi va semantikasi o‘zbek tili bilan qiyosiy o‘rganilib, o‘zbek yuridik tilida xalqaro huquqiy terminlarning lingvistik huquqiy asoslari, ularni o‘zlashtirish tamoyillari ishlab chiqilgan va misollar yordamida dalillangan;

o‘zbek tilida xalqaro huquqiy terminlarning transformatsiyasi, ularni tilshunoslik va huquqshunoslik fanlari integratsiyasi, jahon tilshunosligining ilg‘or yutuqlari nuqtayi nazaridan tartibga solish (unifikatsiyalash va standartlashtirish) mezonlari ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek yuridik tilida qo‘llanayotgan huquqiy terminlar etimologiyasini tadqiq etish aynan xalqaro huquqiy terminlar misolida tarixiy ma’lumotlar bilan dalillangan;

xorijiy tillardan o‘zlashgan xalqaro huquqiy terminlarga o‘zbekcha muqobillar topish va ularni iste’molga kiritish uchun taklif qilingan tamoyillarning amaliy ahamiyati ochib berilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olib chiqilayotgan muammoning aniqligi, g‘oyalarning lingvistik qonuniyatlarga mos ekanligi va to‘g‘ri qo‘llanganligi, tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillarning nazariy asosga ega ekanligi, muammoni tadqiq etishda ilmiy-nazariy manbalarga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati amalga oshirilgan tahlillar, ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy qarashlar, xulosalarning terminologiya sohasini boyitganligi, xalqaro huquqiy terminlarning milliy yuridik tilga o‘zlashtirish usullarining berilganligi va tamoyillarning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘zbek yuridik tilida, normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqishda, ularning qonunchilik texnikasi talablariga mos bo‘lishida muhim nazariy manba vazifasini o‘taydi. Shuningdek, undan oliy o‘quv yurtlarida filologiya mutaxassisligida magistratura bosqichining “Hozirgi o‘zbek tili” va yuridik oliy o‘quv yurtlarida “Yurislingvistika”, “Yuridik texnika”, “Qonunchilik texnikasi” fanlaridan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xalqaro huquqiy terminlarning milliy yuridik tilga ta’siri tadqiqi bo‘yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

huquqiy terminologiyani lingvistik nuqtayi nazardan tasniflash, xalqaro terminlarni ona tilimizga o‘zlashtirish uchun ishlab chiqilgan tamoyillar hamda sohaviy terminologik elektron lug‘atlar yaratish yuzasidan olingan ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020–2023-yillarda bajarilgan AM-F-3-201908172 raqamli “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 6-maydagi 04/1-1180-son ma’lumotnomasi**).** Natijada,

tadqiqot xulosalari asosida chiqarilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi yuzasidan erishilgan natijalar loyiha doirasida elektron korpus, shuningdek, korpus lingvistikasining rivojlanishida muhim manba vazifasini bajargan;

turkiy xalqlar tilshunosligida huquqiy terminologiya yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan olingan nazariy va amaliy ko‘nikmalar, shuningdek, ularning milliy yuridik til leksik tizimida mavjud mushtarak jihatlarning o‘rganilishi natijasida olingan xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda olib borilgan П32020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 6-maydagi 04/1-1182-son ma’lumotnomasi). Natijada, turkiy xalqlar huquqiy terminologiyasining o‘xshash va farqli jihatlari asosida keltirilgan xulosalar elektron platformani shakllantirishda nazariy jihatdan manba bo‘lib xizmat qilgan;

huquqiy terminlar tezaurusini yaratishning nazariy masalalari, terminlarning lug‘atlarga kiritilish mezonlari, xalqaro yuridik terminlarning milliy yuridik tilda qo‘llanishi yuzasidan chiqarilgan nazariy xulosalardan Toshkent davlat yuridika universitetida 2022–2023-yillarda bajarilgan AL-21045591 raqamli “Yuridik terminlar elektron tezaurusi va innovatsion multimedia platformasini yaratish” mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat yuridik universitetining 2024-yil 16-maydagi 7/2166-7-son ma’lumotnomasi). Natijada, huquqiy terminlarning lug‘atlarga kiritilishi yuzasidan belgilangan mezonlar elektron tezaurusini shakllantirishda nazariy jihatdan loyiha mazmun-mohiyatini yuksaltirish va misollar bilan boyitish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika hamda 2 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 143 sahifani tashkil etadi

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi oydinlashtirilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan. Natijalarning joriy qilinishi, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Xalqaro huquqiy terminlarning umumnazariy jihatlari”** deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi faslida jahon tilshunosligida huquqiy terminologiya doirasida olib borilgan tadqiqotlar haqida so‘z yuritiladi.

Tilshunoslikda termin va terminologiyaga bo‘lgan qiziqish ushbu leksik birliklar guruhining ijtimoiy ahamiyati bilan ham bog‘liq, chunki ba’zi tadqiqotchilarning qarashlariga ko‘ra, ular inson faoliyatining muayyan sohalarida konseptual bilimlarni lingvistik ifodalash va kodlash vositasidir[24]. Terminologiya har qanday sohada, shu jumladan, huquqshunoslikda ham mavjud bo‘lib, terminlarsiz qonunchilikda fikrni aniq ifodalashga erishish mumkin emas[25].

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab huquqiy terminlarga lingvistik jihatdan qiziqish juda ortdi. XX asr boshlaridan esa huquqiy hujjatlar tilini lingvistik tadqiq qilish jarayoni yanada kengaydi. XXI asr boshlarida esa tadqiqotchilar yuridik tilga, xususan, siyosiy-iqtisodiy islohotlar qonunchilik nuqtayi nazaridan yangicha ko‘rinish kasb etishiga alohida e’tibor qaratdi. Yuridik tilning turli jihatlari uzoq vaqt davomida rus va xorijiy tilshunoslar hamda huquqshunoslarning e’tiborini jalb qilib kelgan. Ayniqsa, Rossiyada bu sohaning so‘nggi o‘n yilligi yangi yo‘nalishning shakllanishi bilan ajralib turadi. Jumladan, rossiyalik tilshunos olim S.P.Xijnyak “Huquq terminologiyasi: shakllanishi va tarkibi”[26] nomli fundamental tadqiqotida huquqiy terminologik tizimning shakllanish tarkibini ishlab chiqdi. Bunday tadqiqotlarning barchasi tilshunoslik va huquq fanlari chorrahasida olib borilganligi sababli, bu yo‘nalishning qaysi sohaga tegishli ekanligi haligacha aniq ajratilmagan. Bizningcha, mazkur yo‘nalish tilshunoslik faniga nisbat berilsa to‘g‘riroq bo‘ladi, chunki uning maqsadi huquqiy subtilni o‘rganishdan iborat bo‘lib, bu til adabiy tilning o‘ziga xos tizimidir.

Shuni ta’kidlash kerakki, tilshunoslar va huquqshunoslar huquqiy termin va huquqiy terminologiya masalasini ikki xil talqin qiladilar. Biroq har ikki soha vakillari ham terminning konteksdan mustaqilligini, shu bilan birga, uning ma’nosi umumiy lug‘atdagi kabi matnda emas, balki uning mazmunida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydilar[27]. Binobarin, “huquqiy termin” tushunchasi huquqshunoslikka oid “Katta izohli lug‘at”da quyidagicha izohlanadi: ***huquqiy termin*** – yuridik texnikaning elementi; tushunchalarning og‘zaki belgilari, ular yordamida davlatning huquqiy normalari mazmuni ifodalanadi va belgilanadi[28]. B.Barixin “huquqiy terminni qonunchilik texnikasining elementi, davlat huquqiy tushunchalarining og‘zaki belgisi sifatida belgilaydi, shuningdek, uning yordamida davlatning huquqiy me’yorlari mazmuni ifodalanishi va mustahkamlanishini ta’kidlaydi”[29].

---

[24] Харлицкий С.М. Информационная структура термина (на примере русских терминов рекламы и связей с общественностью): Автореф. дисс… канд. филол. наук. – М., 2003. – С. 25.

[25] Милославская Д.И. Современный русский язык в сфере административно-правовой и общественной деятельности: Автореф. дисс… канд. филол. наук. – М., 2008. – С. 34.

[26] Хижняк С. Юридическая терминология: формирование и состав. – М.: Наука, 1997. – С. 104.

[27] Милославская Д. Юрислингвистика-2: русский язык в его естественном и юридическом бытии. – Барнаул, 2000. – С.102-105.

[28] Сухарева. Я. Большой толковый словарь. – М., 2005. – С. 134.

[29] Барихин А.Б. Большой юридический энциклопедический словарь. – М.: Книжный мир, 2005. – С. 342.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi olimlarning fikrlari huquqiy termin tushunchasi mazmun-mohiyatini to‘la ochib bera olmaydi, chunki mamlakatda konstitutsiyaviy tuzumning o‘zgarishi munosabati bilan normativ-huquqiy hujjatlar talablari ham o‘zgarib boradi. Agar biz bu xususiyatlarni tilshunoslar tomonidan berilgan izohlar bilan taqqoslasak, huquqshunoslar tomonidan huquqiy termiga berilgan ta’rif ancha keng ekanligi ayon bo‘ladi. Huquqshunoslar huquqiy termin toifasiga hatto qonun matnlarida lingvistik jihatdan umumiy ma’noda qo‘llanadigan barcha so‘zlarni kiritadilar. Biroq terminlarga qo‘yiladigan talablar nuqtayi nazaridan bunday so‘zlarni termin deb hisoblab bo‘lmaydi, chunki bu tushunchalarni yaxlit ta’riflash uchun yetarli asos mavjud emas.

Jahon tilshunosligida huquqiy terminologiyani o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘pgina ishlarda mavzuviy guruhlarni tadqiq etishga e’tibor qaratiladi. Zero, terminlarni o‘zaro aloqadorlikda guruhlarga ajratib tadqiq etish soha terminlarining semantik xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqning alohida sohalarida terminologik tizimning monografik planda o‘rganish ham ko‘plab tadqiqotlarda o‘z ifodasini topgan. Jumladan, N.Martishko[30] tadqiqotida rus qonunchilik tizimida qo‘llanuvchi huquqiy terminlarning modifikatsiyasini tahlil etish orqali qonunosti hujjatlari va boshqa huquqiy hujjatlar matnlarida qo‘llanadigan huquqiy terminlarni tahlil qiladi. A.Denisova esa “Umumiy huquq nazariyasi atamalarining semantikasi”[31] nomli tadqiqotida huquqiy terminlarni paradigmatik aspektda tadqiq qiladi. T.Sokolova huquqshunoslikning alohida sohasi mualliflik huquqi terminlarining paydo bo‘lishi va shakllanishini ekstralingvistik omillar bilan bog‘lagan holda talqin qilib, nemis tili mualliflik huquqi terminologiyasida yunon-lotin tilidan so‘z o‘zlashtirish lug‘at tarkibi boyishining eng samarali usuli sifatida ko‘rsatadi[32].Shuningdek, dunyoning ko‘plab tillarida huquqiy terminologiya alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan. Jumladan, V.Lozovskiy[33] belarus, A.Remezkova[34] koreys, D.Gedeyeva[35] oyrot, E.Gorlova[36] qadimgi polyak tilining huquqiy terminologiyasi bo‘yicha tadqiqot olib borganlar.

---

[30] Мартышко Н. Смысловая модификация терминов в современном законодательном дискурсе: Авторефер. дисс…канд. филол. наук. – Волгорад, 2015. – С.25.

[31] Денисова А. Семантика терминов общей теории права (парадигматический аспект): Авторефер.дисс ... канд. филол. наук. – М., 1992. – С. 177.

[32] Соколова Т. Греческие и латинские заимствования в немецкой терминологии авторского права // Античный вестник. Nuntius antiques. Вып.IX. – Омск: Изд-во ОГУ, 2011. – С.52-53.

[33] Лозовский В. Юридическая терминология в языке белорусских памятников XV-XVII веков: Дисс. ... канд. филол наук. – Минск,1966. – С. 275.

[34] Ремезкова А. Особенности юридической лексики корейского языка // Материалы научной конференции студентов и аспирантов. Дальневосточного государственного университета. – Владивосток, 1999. – С.65-67.

[35] Гедеева Д. Правовая лексика в ойротском письменном языке XVII-XVIII вв: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – М., 1999. – С.18.

[36] Горлова Е. Семантический анализ глагольной судебно-прававой лексики древнопоьского языка // Филология: Межвузовский сб. науч.ст. – Тольятти, 2000. – №6. – С. 82-83.

Turkologiyada ham huquq terminologiyasiga oid salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, R.Xoliqova[37], G.Kagarmanov[38], G.Sobirova[39], R. Muxiyarova[40], V.Timerxanov[41] kabilar shular jumlasidandir.

Ushbu bobning “**Xalqaro huquqiy terminlarning shakllanishi va taraqqiyoti”** deb nomlangan ikkinchi faslida xalqaro huquqiy terminlarning etimologiyasi va taraqqiyoti haqida so‘z boradi.

Insoniyat tarixi davomida huquq fanining vujudga kelishi natijasida yuridik tushunchalarni ifodalovchi huquqiy terminlar, xususan, xalqaro huquqiy terminlar paydo bo‘lgan. O‘z navbatida, tilshunos va huquqshunos olimlar tomonidan ularning shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari ishlab chiqilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumining so‘nggi davrlarida qabilalarning o‘zaro birlashishi natijasida turli davlatlar paydo bo‘la boshladi. Davlatlarning paydo bo‘lishi bilan huquq ham shakllandi va rivojlandi. Ko‘pchilik huquqshunos olimlar, jumladan, professor P.Astapenko[42] Rim huquqi barcha zamonaviy huquqning beshigi va asosi ekanligini va bu xususdagi barcha huquqiy tushunchalar birinchi bo‘lib rim huquqida paydo bo‘lganini ta’kidlaydilar. Shunga ko‘ra, aytish mumkinki, aksariyat xalqaro huquqiy terminlar lotin tili huquqiy terminologiyasi asosida vujudga kelgan bo‘lib, xalqaro huquqning shakllanishi va faoliyati uchun asos sifatida xizmat qilgan. Ular xalqaro yuridik institutlar va tuzilmalarning asosiy mazmunini semantik jihatdan o‘zida mujassam etgan universal huquqiy terminologiyadir.

Huquqiy terminologiyaning maxsus sohasi sifatida xalqaro huquqiy terminlarning shakllanishi mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayoti va huquq tizimining rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda amalga oshgan. Ilk xalqaro huquqiy terminlar lotin, yunon hamda skandinav tillariga oid so‘zlardan olingan. Shuningdek, zamonaviy huquqshunoslikning o‘ziga xos yuridik lug‘atining katta qismini fransuz, ingliz tili so‘z va iboralari tashkil qiladi. (Masalan, *persona non grata, habeas corpus, de facto, infraction, dekret* kabilar).

Xalqaro huquqiy terminlarning taraqqiy etishidagi muhim omillardan biri VII asrdan xristianlik dinining ommalashishi, o‘z navbatida, kelib chiqishi lotin tiliga oid bo‘lgan huquqiy leksikaning tarqalishiga ham hissa qo‘shdi. Mazkur davrda huquqshunoslik sohasi sud tizimiga oid bir qancha terminlar bilan boyidi. *Conviction* (hukm qilish), *legitimate* (qonuniy), *mediate* (vositachilik qilish) va shu kabilar. XI asrga kelib, rasmiy yozishmalar va nizomlar lotin tilida yozilsa-da, sud ishlari fransuz tilida olib borilgan va bu jarayon XVII asrgacha davom etdi. Lekin, baribir, lotincha xalqaro huquqiy terminlar keng iste’molda bo‘ldi. Shuningdek, bu davrda fransuzcha baynalmilal terminlar salmoqli o‘rin egallab, huquq tiliga

---

[37] Халикова Р. Язык башкирских историческо-юридических и деловых документов XVIII: Дисс. … канд. филол. наук. – М., 1963. – С. 196.

[38] Кагарманов Г. Башкирская общественно-политическая терминология советского периода. Монография. – Уфа: РИО БашГУ, 2005. – С. 186.

[39] Сабирова Г. Новые слова и новые значения в современном татарском языке (на материале периодической печати и словарьей 1990-х г.г): Авторефер. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 1990. – С.20.

[40] Мухиярова Р. XX гасырнын 80-90-еллерында татар едеби теле лексикасы. – Яр Чаллы, 2000. – С. 312.

[41] Тимерханов А. Язык и стиль татарского документа. – Казань, 2005.– С. 312.

[42] Астапенко П. Римское право. – М., 2018. – С.35.

mustahkam singib bordi. Masalan, *parlament, bill, renta, decree (farmon, qaror), privilege (ustunlik qilish)* kabi terminlarning deyarli barchasi xalqaro darajada qo‘llana boshladi va ular hozirgacha xalqaro huquqiy teminlarning asosini tashkil qiladi.

Xalqaro huquqiy terminlarning taraqqiy etishida ingliz va rus tillari ham muhim ahamiyat kasb etgan. Huquqiy terminlarning kasbiy muloqot vositasi sifatidagi muhim jihati ularning hukmron sinf dunyoqarashi va mafkurasi, turli siyosiy-huquqiy nazariyalar, ilmiy yo‘nalishlar, huquqiy tajriba bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘rta asrlar sud amaliyotida, masalan, “feodal” va “feodalizm” kabi terminlar paydo bo‘lib, keyinroq ular ma’lum bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya nomini anglatdi. Buning yana bir yorqin misoli sifatida “*respublika”* terminini keltirish mumkin. G‘arb faylasufi J.J.Russo (1712-1778-yy.) tomonidan ilk marta qo‘llangan **“***respublika*” termini Fransiyada umuman har qanday tuzumdagi davlat ma’nosida ishlatilgan. Bu davrda lotincha “*riscum”, “rescum”* atamalari keng tarqalgan. Ular faol dengiz savdo huquqida va moliyaviy huquqda xavfni ifodalash uchun qo‘llangan. Ushbu xalqaro huquqiy terminlar yuridik tilga mustahkam o‘rnashib, huquqiy hodisaning mohiyatini to‘laqonli ifodalashga xizmat qildi. Mazkur terminlar xalqaro huquqiy termin sifatida hozirgacha saqlanib qoldi va fonetik moslashuv asosida dunyo tillariga o‘zlashdi.

Birinchi bobning uchinchi fasli “**Xalqaro huquqiy terminlarning qiyosiy tadqiqi**” deb nomlanadi. Ishning bu qismida xalqaro huquqiy terminlarni qiyosiy tilshunoslik nuqatayi nazaridan tadqiq qilishning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Qiyoslanayotgan tillar xalqaro huquqiy terminologiyasida mavjud birlashtiruvchi va farqlovchi belgilar tahlil qilinadi.

Tilshunoslikda qiyosiy-tipologik yo‘nalish o‘z taraqqiyotining hozirgi bosqichida tobora ommalashib, tadqiqot doirasini kengaytirmoqda. Ayniqsa, turli tizimdagi tillarni qiyosiy jihatdan o‘rganish hozirda keng qamrovli tadqiqotlarni o‘z ichiga olmoqda. Mana shunday tadqiqotlardan biri ingliz va tojik tillari huquqiy terminologiyasining semantik-tarkibiy tahlilini amalga oshirish masalasidir. Aynan shu mavzu L.Mamadjonovaning[43] ilmiy tadqiqoqtida ko‘rish mumkin. Tadqiqotda rus, ingliz va tojik tillarining huquqiy terminologik tizimlari qiyoslanib, mazkur tillar terminologiyasida nutqning nominal qismlari, fe’l va fe’l birikmalarning qo‘llanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Bugungi kunga qadar tojik va ingliz tillarining qiyosiy jihatdan xalqaro huquq terminologiyasini o‘rganish bo‘yicha N.Saidmurodova[44] tomonidan olib borilgan tadqiqot dolzarb ahamiyatga ega. U o‘z ilmiy tadqiqotida qiyoslanayotgan ikki til xalqaro huquqiy terminologik tizimida termin hosil qilish usullari, shakllanish manbalari va tizimning semantik xususiyatlarini o‘rganadi. Umuman olganda, keng qamrovli tahlil davomida leksikografik manbalardan 1320 ta xalqaro huquq terminlarini tahlil qiladi. Hozirgi zamonaviy fan doirasida olib qaralganda ham xalqaro huquq terminologik tizimini tadqiq etish davom ettirilmoqda.

---

[43] Мамаджонова М. Семантико-структурний анализ юридических терминов в английском и таджикском языках: Авторефер. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2006. – С. 162.

[44] Саидмуродова Н. Структурно-семантический анализ терминов междунородново права в английском и таджикском языках: Авторефер. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2006. – С. 160.

O‘zbek tilshunosligida turli tillarning terminologik tizimlarini o‘rganishga doir tadqiqotlar bilan bir qatorda, o‘zbek tili huquqiy terminologiyasini boshqa tillar bilan qiyosiy-tipologik yo‘sinda tadqiq etish yuzasidan ham qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Hozirgi kungacha o‘zbek tilshunosligida huquqiy terminlarni qiyosiy jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan, P. Nishonovning “Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminlarning qiyosiy-tipologik tadqiqi”[45], M. Baxriddinovaning “Nemis-o‘zbek yuridik terminlarining leksikografik tadqiqi”[46] U. Po‘latovaning “Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik terminlarning chog‘ishtirma tadqiqi”[47] mavzusida bajarilgan tadqiqotlar mavjud.

Bu tadqiqotlarda milliy yuridik tilimizda qo‘llaniluvchi huquqiy terminlar umumiy tarzda o‘rganilgan bo‘lib, huquqning alohida sohalari bo‘yicha tarmoqlarga ajratilmagan. Bizning tadqiqotimiz huquqning alohida va muhim yo‘nalishi hisoblangan xalqaro huquqiy terminlarni diaxron va sinxron aspektda tahlil etish, milliy yuridik tilimizga o‘zlashayotgan baynalmilal so‘zlarning o‘zlashish usul va tamoyillarini belgilashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yganligi bilan yuqoridagi tadqiqotlardan farqlanadi.

Dissertatsiyaning **“Xalqaro huquqiy terminlarni milliy yuridik tilga o‘zlashtirish usullari va tamoyillari”** deb nomlangan ikkinchi bobida xalqaro huquqiy terminlarning milliy yuridik tilimizga ta’siri, ularni o‘zbek tiliga o‘zlashtirish usul va tamoyillari haqida bayon qilinadi.

Bobning **“Xalqaro huquqiy terminlarni o‘zbek yuridik tiliga o‘zlashtirish usullari”** deb nomlangan birinchi faslida xorijiy so‘z va terminlarni o‘zbek tiliga o‘zlashtirish usullari xususida so‘z boradi.

Ma’lumki, jahon mamlakatlari tomonidan qo‘llanadigan xalqaro huquqiy terminlarning aksariyat qismini lotincha huquqiy terminlar tashkil etadi. Chunki qadimgi rim huquqi lotin huquqiy terminlarining butun dunyo miqiyosida keng yoyilishi uchun xizmat qilgan. Yevropa tillaridan o‘zlashgan xalqaro huquqiy terminlar o‘zbek yuridik tilida ham ma’lum bir qismni tashkil etadi. Ular o‘zbek tiliga quyidagi usullar yordamida o‘zlashtiriladi:

1. So‘zni o‘zgarishsiz qabul qilish. Masalan: *ombudsman, alibi, audit, valyuta, votum, debet* va boshqalar.

2. Kalkalash yo‘li bilan so‘z o‘zlashtirish. Masalan: *veto – taqiqlayman (man qilaman), anneksiya – qo‘shib olish, agressiya-tajovuz, delikvent-xalqaro huquqbuzar* va boshqalar.

So‘zni o‘zgarishsiz qabul qilish milliy yuridik tilimizda mahsuldor usullardan biri hisoblanadi va shunga ko‘ra, bunday terminlar soha terminologiyasining salmoqli qismini tashkil qiladi. Misol tariqasida “Yuridik terminlarning ruscha-o‘zbekcha”[48] lug‘atini tahlilga tortdik. Lug‘atda to‘qqiz

---

[45] ? Нишонов П.Француз ва ўзбек юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф . – Тошкент, 2009. – Б. 146.

[46] Baxriddinova M. Nemis-o‘zbek tillari yuridik terminlarining leksikografik tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha fals. d-ri (PhD) … diss. – Andijon, 2023. – B. 136.

[47] Po‘latova U. Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik terminlarning chog‘ishtirma tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha. fals. d-ri (PhD) … diss. – Andijon, 2023. – B. 140.

[48] Mahmudov N., Ko‘chimov Sh., Sharipova N. Yuridik terminlarning ruscha-o‘zbekcha lug‘ati. –Toshkent, 2021.

mingga yaqin huquqiy termin berilgan bo‘lib, ular huquqning deyarli barcha sohalariga tegishlidir. Bu terminlarni tadqiq qilish davomida xalqaro huquq sohasiga oid *attashe, balans, banditizm, bankrot, birja, deputat, diktatura, demokratiya, parlament, antisemitizm, attashe, attestatsiya, ballistika, valyuta, deputat, diktatura, kapitalizm, koloniya, komissiya, konsul, mafiya, mandate, memorandum, militsiya, monarxiya, narkotik, natoriat, natorius, nota* kabi terminlar o‘zgarishsiz lug‘at tarkibiga kiritilganligi aniqlandi. Bu terminlar lug‘atda berilgan jami birliklarning 13% izini tashkil qiladi.

Ikkinchi usul kalkalash yo‘li bilan so‘z o‘zlashtirish hozirda dunyo tillarining deyarli barchasi uchun yaxlit usul sifatida xizmat qilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda kalkalab so‘z o‘zlashtirishning: *so‘z yasovchi, semantik, birikmali va fonetik* turlari qayd etiladi[49]. O‘zbek tilida xalqaro huquqiy terminlarni o‘zlashtirishda bu usullarning deyarli barchasi faol qo‘llanadi.

a) so‘z yasovchi kalkalash: *акционерный – aksiyali, браконьерство– brakonyerlik, валютчик – valyutachi конституционный – konstitutsiyaviy*;

b) semantik kalkalash: *appelyatsiya – norozilik arizasi, immigrant – muhojir, instansiya – bosqich, gomeseksualist – besoqolbozlik, byurokratizm – rasmiyatchilik, vakansiya – bo‘sh o‘rin, konvensiya – shartnoma* va shu kabilar.

d) birikmali kalkalash. Chet tilidagi birikmani qismlarga bo‘lib, so‘zma so‘z tarjima qilishdir. Bu usulda termin o‘zlashtirish huquqiy terminologiyada ikki xil usulda amalga oshadi. Ya’ni o‘zlashtirilayotgan birlik bir qismi asl holaticha ikkinchi qismi o‘zbek tilidagi muqobil so‘z bilan almashtiriladi. Masalan, *военная диктатура – xarbiy diktatura, таможная декларация – bojxona deklaratsiyasi, новация международного договора – xalqaro shartnoma novatsiyasi, декларация прав человека –inson huquqlari deklaratsiyasi* va boshqalar. Keyingi holatda o‘zlashtirilayotgan birlikning har ikki qismi ham adabiy til elementi bilan almashtirib, ekvivalent birikma hosil qiladi. Masalan: *гонорар – авторский mualliflik haqi (qalam haqi*); *декретный отпуск – homiladorlik ta’tili, земельный налог – yer solig‘i* va boshqalar.

f) fonetik kalkalash. Xalqaro huquqiy terminlarning asosiy qismi genetik jihatdan yevropa tillaridan kelib chiqqanligi, milliy yuridik tilimizga o‘zlashtirishda fonetik moslashuvni talab qiladi. Ayniqsa, kelib chiqishi lotin tiliga borib taqaladigan xalqaro huquq terminlarining milliy yuridik tilimizga o‘zlashishida rus tili vositachi vazifasini bajaradi.

Masalan: lotincha: *colonia<колония<koloniya, comissio<комиссия< komissiya, cassatio< касса*ция*< kassatsiya;*

fransuzcha: *alliance<альянс<alyans, adultere<адюльтер<adyulter;*

italyancha*: cuasso<касса<kassa, maf(f)ia<мафия<mafiya* kabi**.**

Bobning ikkinchi fasli **“So‘z o‘zlashtirish huquqiy terminologiyani boyitish usuli sifatida”** deb nomlanib, tilshunoslikda so‘z o‘zlashtirish terminologik tizimlarning boyishida asosiy hodisa sifatida talqin qilinadi.

[49] Володина М. Терминологическая номинация и информационная картина мира / Научно-техническая терминология (научно-технический реферативный сборник): – М., 1996. – С. 62.

So‘z o‘zlashtirish tillar boyishining asosiy usullaridan biridir. Ta’kidlash kerakki, har bir tilda o‘zlashma so‘zlarning eng katta qismi aynan terminologik tizimlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Terminologik tizimlarda so‘z o‘zlashtirish umumadabiy tildagidan farqli ravishda yuzaga keladi. Umumadabiy tilda boshqa tildan o‘zlashtirilayotgan so‘z bir necha yillar davomida kishilarning og‘zaki nutqida qo‘llanib, keyin asta-sekin yozma manbalarga (badiiy va ilmiy adabiyotlar, lug‘atlar va shu kabilarga) kirib borsa, termin o‘zlashtirish faqat yozma shaklda ro‘y beradi. Dunyo tillari, shu qatorda, o‘zbek tili leksik tizimida aks etmagan yangi kirib kelayotgan tushunchalarni nomlash zaruriyati ham yuqoridagi lingvistik sabablardan biridir. Bu o‘rinda lakunarlik hodisasi, ya’ni o‘zbek tilida “oq dog‘” bo‘lgan bo‘shliqni to‘ldirish nazarda tutilmoqda. Biroq, “shuni ham ta’kidlash kerakki, o‘zlashtirilgan terminlardan foydalanish jarayoni har doim ham muayyan lakuna (bo‘shliq) ni to‘ldirish bilan bog‘liq emas. Bundan tashqari, o‘zlashtirilayotgan so‘z yoki termin har doim ham o‘zlashma tildagi terminlar tizimidagi ma’nosi bilan o‘zlashtirilavermaydi”[50]. Boshqa tillardan kirib kelgan terminlar ma’lum bir lingvistik xususiyatlarga ega bo‘lgandagina ularga o‘zlashma termin sifatida qarash mumkin. Huquqiy sohada yangi tushunchalarning qo‘llanishi esa xalqaro munosabatlarda diplomatik xizmatchilar o‘rtasida og‘zaki suhbatlar, turli davlatlararo va tashkilotlar o‘rtasidagi rasmiy va norasmiy bitimlar asosida yuzaga keladi. O‘zbek tili leksik tarkibining boyishi va takomillashuvida ham aynan shu jihat muhim hisoblanadi.

Ushbu bobning **“Xalqaro huquqiy terminlarni o‘zbek yuridik tiliga o‘zlashtirish tamoyillari”** deb nomlangan uchinchi faslida dunyo tillaridan milliy yuridik tilimizga kirgan xalqaro huquqiy terminlarni o‘zbek tiliga o‘zlashtirish tamoyillarini ishlab chiqdik. Ular quyidagilar:

1-tamoyil. Ma’lum bir xalqaro huquqiy termin butun dunyo xalqlari tomonidan yagona tarzda (umumiy shaklda) ishlatilayotgan bo‘lsa, o‘zbek yuridik tilida ham uni aynan shu shaklda qabul qilish. Masalan, *respublika* (jumhuriyat emas), *konstitutsiya* (asosiy qonun emas), *parlament* (qonun chiqaruvchi idora emas). Bu tamoyil, birinchi navbatda, xalqaro huquqiy terminlarga o‘ziga xos yaxlit tizim sifatida qarash imkonini beradi. Qolaversa, terminning o‘ziga xos belgilari qatorida rasmiylashgan so‘z ekanligi nafaqat respublika miqiyosida, balki dunyo miqiyosida bir tushunchani anglatish holati kuzatiladi. Xalqaro tajriba va amaliyotga to‘g‘ri amal qilish maqsadida hozirda u bilan bir vaqtda va bir xil ma’noda foydalanilayotgan xalqaro terminni qo‘llash har jihatdan qulay va eng ma’qul yo‘l hisoblanadi. Misol tariqasida aytish mumkinki, jahon miqiyosida birdek qo‘llanuvchi *inson huquqi bo‘yicha vakil* iborasi ma’nosida “*ombudsman”* terminini qo‘llash to‘g‘ri ko‘rinadi. Deyarli barcha milliy yuridik til uchun, shular jumlasidan, O‘zbekiston huquqiy amaliyoti uchun ham nisbatan yangi bo‘lgan bunday huquqiy voqelikni ifodalovchi asosli o‘zlashmalardan foydalanish samaralidir.

[50] Саидқодирова Д. Инглиз ва ўзбек тилларида интернет терминларининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. докт. . (PhD) ... дисс.. – Тошкент, 2018. – Б. 124.

2-tamoyil. Xalqaro huquqiy tushunchalarni qabul qilishda o‘zbekcha muqobillarga ustunlik berish. Ta’kidlash joizki, boy yozma manbaga ega bo‘lgan ona tilimizda qo‘llanib kelayotgan so‘z va birikmalarni baynalmilal so‘zlarning muqobili sifatida ishlatish mumkinligi ham tilning ichki imkoniyatidan to‘la foydalanish va tegishli terminlarni o‘zlashtirishda eng to‘g‘ri yo‘l ekanligini ko‘rsatadi. Xalqaro tillardan o‘zlashayotgan terminlarga adabiy tildan muqobillar topish va ularni qo‘llash bu borada qilinayotgan ishlarning poydevoridir. Huquqshunoslikda ham shu yo‘ldan borilib, xalqaro yuridik terminologiyani qabul qilishda ona tilimizning boy imkoniyatlaridan foydalanish, adabiy tilda bunday birliklarga muqobillarni topish, adabiy tilda mavjud bo‘lmagan holatlarda shevalarga murojaat qilish zarur. Afsuski, hozirda ba’zi huquqiy terminlarning ma’nosini to‘liq ifodalay oladigan o‘zbekcha muqobillar bo‘lishiga qaramasdan, normativ-huquqiy hujjatlarimizda asl holicha ishlatilmoqda. Biz tadqiqotimizda mana shunday terminlar sifatida “de-fakto”ni *amalda (aslida),* “de-yure”ni *rasmiy (qonuniy)* tarzda ishlatishni tavsiya qilamiz.

3-tamoyil. Ayrim tillardagina ishlatilayotgan xalqaro huquqiy terminlarga o‘zbekcha muqobil tanlash va uni qabul qilish. Masalan, rus tilidagi *выездная судебная заседания* terminining o‘zbek tilida *sudning sayyor yig‘ilishi* tarzida ishlatilishi juda o‘rinlidir. Chunki mazkur huquqiy tushuncha butun dunyo xalqlari tomonidan emas, faqat rus tilidagina shu tarzda ishlatiladi. Bu o‘rinda ta’kidlash joizki, boy yozma manbaga ega bo‘lgan ona tilimizda qo‘llanib kelayotgan so‘z va birikmalardan unumli foydalanish zarur.

4-tamoyil. Xalqaro huquqiy terminlarni o‘zlashtirishda o‘zbek adabiy tili va milliy yuridik til xususiyatlarini hisobga olish. Huquqiy terminlarni bir tildan ikkinchi bir tilga (ya’ni o‘zbek tiliga) o‘zlashtirishda muayyan me’yor saqlanishi shart, shubhasizki, bu me’yor, birinchi navbatda, adabiy til va soha talablaridan kelib chiqib shakllantiriladi. Har qanday normativ-huquqiy hujjat matnida rasmiylik, qat’iylik va betaraflik ifodalangan bo‘lishi bilan bir qatorda, eng yuqori darajada aniqlikni ta’minlash zarur. Bu esa xalqaro terminlarni milliy yuridik tilimizga o‘zlashtirishda bu me’yorlarga amal qilishni talab qiladi. Misol uchun, ayrim tushunchalarning umumadabiy til me’yoriga kirmagan xalq tilidagi variantlari *prokuror-qoralovchi, advokat-oqlovchi, anonim xat-dumaloq xat;* ayrim eskirgan so‘zlar *sudya-qozi, tilmoch-tarjimon, partiya-firqa*[51]. kabi so‘zlar qo‘llanishi yuridik til talablarining ochiqchasiga buzilishidir. Misollarga e’tibor qaratilsa, berilgan huquqiy terminlar o‘zlashma so‘z hisoblansa-da, ularga o‘zbekcha muqobillar izlash va ularni qo‘llash yuridik tilning tushunarlilik va aniqlik kabi talablariga mos kelmaydi.

5-tamoyil. Xalqaro huquqiy terminlarni o‘zlashtirishda (tavsiya etilayotgan muqobillarni qabul qilishda) terminlarga qo‘yiladigan talablarga qat’iy rioya qilish. Huquqshunoslikda termin yaratish, ulardan foydalanish, ayniqsa, terminlarni milliy tilga o‘zlashtirish boshqa terminologik tizimlarga qaraganda murakkab vazifa hisoblanadi. Buning uchun huquqiy terminlarni tahlil qiluvchi soha vakili yuridik bilimlar bilan bir qatorda o‘z ona tilining fonetik,

[51] Кўчимов Ш. Юридик тил назарияси ва амалиёти. – Тошкент, 2013. – Б. 29.

leksik-grammatik xususiyatlari hamda terminologik talablarni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim. Masalan, “*referendum”* termini lotin tilida “*bildirilishi kerak bo‘lgan*” degan ma’noni anglatadi va yuridik tilda “*umumxalq fikrini hisobga olish”* ma’nosida qo‘llanadi. Bu terminga muqobil sifatida berilgan “umumxalq fikrini hisobga olish” leksemasi referendum terminining ma’nosini to‘g‘ri va aniq ifodalashiga qaramasdan, terminlarga qo‘yiladigan “ixchamlik” va “qisqalik” talablariga javob bermaydi. Bu esa mazkur terminning milliy yuridik tilimizda muqobilini topish mumkin bo‘lsa-da, xalqaro terminning asl holaticha qo‘llash zaruratini keltirib chiqaradi.

6-tamoyil. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tili va terminologiyasini yuridik til va terminlardan foydalanishning mukammal namunasi sifatida qabul qilish. Konstitutsiyamizda qo‘llangan huquqiy terminlarning birligi va yaxlitligini ta’minlash uchun boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ham xuddi shu tarzda ishlatish, huquqiy terminlarni unifikatsiyalash va standartlashtirishning asosini tashkil etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Xalqaro huquqiy terminlarning leksikografik talqini”** deb nomlangan bo‘lib, bu bobda o‘zbek tilida mavjud sohaviy, ensiklopedik, izohli, tarjima lug‘atlarda berilgan xalqaro huquqiy terminlarning leksikografik tadqiqiga bag‘ishlangan.

Uchinchi bobning **“Xalqaro huquqiy terminlarning sohaviy lug‘atlarda berilishi**” deb nomlangan birinchi faslida sohaviy terminologik lug‘atlarda berilgan xalqaro huquqiy terminlar tadqiq qilindi.

O‘zbek huquqshunosligida sohaviy lug‘at yaratish uzoq asrlik tarixga ega. Bu boradagi dastlabki lug‘at G‘ozi Yunus tomonidan 1926-yilda tuzilgan “Ruscha-o‘zbekcha qisqacha huquqiy va siyosiy lug‘at”[52] hisoblanadi. O‘zbek yuridik atamashunosligining o‘rganilishida huquqshunos olim F.Bakirov xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim. Olimning eng katta xizmati o‘zbek leksikografiyasi va huquq fani uchun birdek muhim hisoblangan “Yuridik terminlar lug‘ati”[53]ni tuzganligidir. Bu lug‘atni o‘zbek leksikografiyasida huquqshunoslikning dastlabki sohaviy lug‘atlaridan bir deyish mumkin. Keyinroq 1983-yilda F.Muhitdinov, K.Mirzajonovlar tomonidan “Yuridik terminlarning qisqacha ruscha-o‘zbekcha lug‘at spravochnigi”[54] nashr etildi. Biroq bu lug‘atlarda huquqiy terminlarning berilishida o‘zbekcha muqobilini topish mumkin bo‘lgani holda, ularning o‘rniga ko‘p o‘rinlarda ruscha terminlarning berilishi kuzatiladi.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va o‘zbek tilining davlat tili maqomini olishi boshqa sohalarda bo‘lgani singari milliy yuridik tilimizning rivojiga ham ijobiy ta’sir o‘tkazdi. Aynan shu davrdan boshlab yuridik leksikografiya ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Huquqshunos olimlardan G‘.Ahmedov, A.Saidov, U.Bozorov hammuallifligida 1993-yilda “Yuridik terminlar va iboralar lug‘ati” yaratildi. Bu lug‘atda yevropa tillaridan o‘zlashgan yuridik terminlarning o‘zbekcha muqobilllarini berishga harakat qilingan bo‘lib,

---

[52] Ғози Юнус. Русча-ўзбекча қисқача ҳуқуқий ва сиёсий луғат. – Тошкент, 1926.

[53] Бакиров Ф. Юридик терминлар луғати. – Тошкент, 1959.

[54] Муҳитдинов Ф., Мирзажонов К. Юридик терминларнинг қисқача русча-ўзбекча луғат справочниги. – Тошкент, 1983.

bu bilan lug‘at tuzuvchilar sohaviy lug‘at tuzish an’anasini davom ettirganlar. Tadqiqotimizda ushbu lug‘atni statistik jihatdan tahlil qilish davomida lug‘atga kiritilgan terminlar orasida xalqaro huquqiy terminlar salmoqli qismni tashkil etib, ular lug‘at tarkibida umumiy (6700 ta) terminlarning 17% ini (389 ta) tashkil etishi aniqlandi. 1999-yilda olimlar H.Bektemirov, H.Xolmedov, S.Sodiqov tomonidan “Huquqshunoslikka oid o‘zlashma terminlar”[55] lug‘ati nashr etildi. Bu lug‘atda, asosan, o‘zbek yuridik tiliga boshqa tillardan o‘zlashgan 800 ga yaqin xalqaro huquqiy terminlarning izohi berilgan. Shuningdek, lug‘atda berilgan o‘zlashma terminlarning qaysi tildan kirib kelganligi va ularning birlamchi ma’nolari ham izohlangan. Lug‘atda kelib chiqishi arabcha: *avariya (a’var-zarar, talofat), alkogolizm (al-kuhul-mayda kukun)*; italyancha: *kontokorrent (conte corrente – joriy hisob), mafiya (maf(f)ia– o‘zboshimchalik, bedodlik, zo‘ravonlik);* lotincha*: emissiya (emission–zo‘ravonlik), notifikatsiya (notificare – ma’lum qilish), plebitsit (plebuscitum – xalq qarori);* nemischa: *abonent (abonnent – obuna bo‘lmoq);* ruscha*: zayom (vzyami – qarzga), ustav (ustav – nizom);* turkcha: *pay (pay – ulush, hissa);* fransuzcha: *kuryer (courier – chopar, xabarchi);* shvedcha: *ombudsman (ombudsman – kimlarningdir manfaatlari vakili);* yunoncha*: monarxiya (monarxia – yakka hokimlik), protocol (protokollon – birinchi varaq);* qadimgi germancha: *feodalizm (fihu – fehu(yer – mulk+od “egalik)”* inglizcha: *Charter – (charter-yorliq);* afrikancha*: aparteid (apartheid – yakka yashash)* bo‘lgan xalqaro huquq terminlari izohlangan.

Uchinchi bobning **“Xalqaro huquqiy terminlarning ensiklopedik lug‘atlarda berilishi**” deb nomlangan ikkinchi faslida ensiklopedik xarakterdagi yuridik lug‘atlarda berilgan xalqaro huquqiy terminlar tadqiq qilinadi.

O‘zbek leksikografiyasida huquqiy terminlarning tizimli elektron alifbosini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi. 2009-yilda “O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi”, 2003-yilda H.Rahmonqulov tahriri ostida “Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati”ning yaratilishi qonun hujjatlarida huquqiy terminlarni aniq va bir xilda, to‘g‘ri qo‘llashga yordam bermoqda. “Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati”da berilgan terminlarning katta qismi o‘zlashma so‘zlar hisoblanadi. Bunday terminlarning aksariyati, asosan, lotin, yunon, fransuz, nemis, tillaridan olingan. Shuningdek, arab tiliga oid ayrim xalqaro huquqiy terminlar ham mavjud. Masalan: *adliya* (ar. adala – odillik), *alkabala* (ar. al-qabala – majburan olmoq), *alkogolizm* (ar. al-kuhul – mayda kukun) kabilar. Lekin shu bilan birga, bu ikki lug‘at bir-biriga o‘zaro qiyoslaganda, ayrim kamchiliklarni ko‘rish mumkin. Jumladan, bir huquqiy terminga turlicha ta’rif berilishi holatlari kuzatiladi. Ayrim terminlar nafaqat izohi, balki orfografik jihatdan ham farqli berilgan. Masalan:

“Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati”: *indossament, indessant, inkassa;*

“O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi”: *indessament, indossant, inkasso.*

Uchinchi bobning “**Xalqaro huquqiy terminlarning izohli lug‘atlarda berilishi”** deb nomlangan uchinchi faslida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da xalqaro huquqqa oid terminlarning berilishi yuzasidan fikrlar bayon qilingan.

[55] Бектемеров Ҳ., Холмедов Ҳ., Содиқов С. Ҳуқуқшуносликка оид ўзлашма терминлар. – Тошкент: Адолат, 1999.

O‘zbek tilshunosligida huquqiy terminlarning leksikografik tadqiqi yuzasidan E.Sobirovaning “O‘zbek tilining izohli lug‘atida huquqiy terminlarning berilishi”[56] mavzusidagi dissertatsiyasi diqqatga sazovor. Tadqiqotda izohli lug‘atdagi huquqiy terminlar statistik, etimologik va shakliy-struktur jihatdan tahlilga tortilgan hamda semantik xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, izohli lug‘atda huquqiy terminlarini tasniflashni takomillashtirish va korpusda teglash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Biroq tadqiqot obyekti sifatida izohli lug‘atda faqatgina maxsus pometa bilan berilgan huquqiy terminlargina olingan, pometa bilan berilmagan ba’zi bir sof huquqiy terminlar esa tahlilga tortilmagan.

Bu tadqiqotdan farqli ravishda, biz dissertatsiyamizda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan huquqiy terminologik tizimga kiruvchi terminlar orasidan xalqaro huquq terminlarini ajratib olgan holda, leksikografik tadqiqini amalga oshirdik. Tahlil qilish asnosida xalqaro huquqiy terminlar, asosan, o‘zlashtirilgan so‘zlar hissasiga to‘g‘ri kelishi aniqlandi. Shu bilan bir qatorda, milliy tilga o‘zlashgan muayyan terminlarning umumfilologik izohli lug‘atlarda, sohaviy terminologik lug‘atlarda, ensiklopedik lug‘atlarda yoki tarjima lug‘atlarda berilgan definitsiyasi (izohi) o‘rtasidagi farqlarni taqqoslash va ular o‘rtasidagi integral hamda differensial belgilarni yoritdik. Shuningdek, 1981 (II jildli), 2006-2008 (V jildli), 2022 (VI jildli) yillarda nashr etilgan izohli lug‘atga kiritilgan huquqiy terminlarning farqli va o‘xshash jihatlarini misollar orqali qiyoslashga harakat qildik.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da huquqiy terminlarning berilishi bilan bog‘liq xususiyatlardan biri V jildli izohli lug‘atda berilgan ayrim huquqiy terminlar II jildli lug‘atda so‘z sifatida ham mavjud emasligidir. Tadqiqotchi E.Sobirova ham bu masalaga to‘xtalib o‘tib, bunday birliklarni statistik jihatdan tahlil qiladi. Olima V jildli lug‘atga kiritilgan yangi huquqiy termin sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi: *akkeriditatsiya, bimetallizm, bikameralizm, bipartid, veto, bonus, legitim, legitimatsiya, neytralitet, persona-grata, persona non-grata, poraxo‘rlik, prolongatsiya, rekvizitlar, replika, eksgumatsiya*. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni tahlil qilish asnosida bunday terminlar qatorini yana davom ettirish mumkin degan xulosaga keldik. Xususan, II jildli izohli lug‘atda berilmagan, II jildli va VI jildli izohli lug‘atga kiritilgan yangi xalqaro huquqiy terminlarga misol sifatida *denaturlizatsiya, de-fakto* kabilarni keltirish mumkin.

Bu so‘zlarning II jildli lug‘at tarkibiga kiritilmaganligining sabablaridan biri – terminlarning milliy yuridik tilimizda qo‘llanilish darajasi bilan bog‘liq. Negaki, ba’zi xalqaro huquqiy tushunchalarning milliy tillarga kirib kelishi va faol qo‘llanishi ma’lum davrni talab qiladi. Tushuncha tilga singib, termin keng iste’molda qo‘llanishi esa uni izohli lug‘atga kiritish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Yuqorida berilgan misollarning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni yangilash asnosida V jildli lug‘atga kiritilishi ham aynan shu jarayonning ta’siridir. Shunday qilib, izohli lug‘atni tahlil qilish natijasida V va VI jildli lug‘atlar II jildli lug‘atga qiyoslanganda, yangi huquqiy terminlar bilan boyiganligi diqqatga sazovordir.

[56] Сабирова Э.Ш. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” да ҳуқуқий терминларнинг берилиши: Филол. фан. бўйича фалс. докт. . (PhD) ... дисс..– Тошкент, 2022.

Uchinchi bobning **“Xalqaro huquqiy terminlarning tarjima lug‘atlarda berilishi**” deb nomlangan to‘rtinchi faslida sohaga oid tarjima lug‘atlarda xalqaro huquq terminlarining berilishi yuzasidan fikr bildiriladi.

Huquqshunoslikka oid ko‘p tilli lug‘at yaratish borasidagi dastlabki urinish sifatida 1999-yilda G‘.Sotimov tomonidan yaratilgan “Yuridik atamalarning inglizcha-ruscha-o‘zbekcha” lug‘atini keltirish mumkin. 2002-yilda G‘.Ahmedov, H.Bektemirov bilan hammualliflikda “Ruscha-o‘zbekcha yuridik atamalar lug‘ati” yaratildi, natijada yuridik lug‘atshunoslik yana bir tarjima lug‘ati bilan boyidi. Mazkur lug‘at tuzilishi va unda terminlarning berilishi jihatidan oldingi lug‘atlardan farq qilib, xalqaro huquqqa aloqador tushunchalarni o‘zbek tilidagi muqobillari bilan birga tushunish murakkab bo‘lgan terminlar alohida izohlangan. 2003-yilda A.Saidov va G.Rahimova hammuallifligida “O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida qo‘llanadigan yuridik atamalar glossariysi” yaratildi. Ushbu lug‘atda qonun ijodkorligi jarayonida qo‘llanadigan 1000 ga yaqin huquqiy terminlarning beshta (o‘zbek, rus, ingliz, nemis va fransuz) tillaridagi shakllari berilgan. 2010-yilda M.H.Rustamboyev va R.H.Sharipovlar tahriri ostida “Yuridik terminlarning o‘zbekcha-ruscha lug‘ati” yaratildi. Lug‘at tarkibiga kiritilgan birliklar qatorida sof huquqiy terminlar miqdor jihatdan ustunlik qiladi va ularning tarkibida *emissiya, xabeas korpus, fraksiya, fors-major, ssuda, sionizm, munitsipalitet* kabi kam qo‘llanuvchi xalqaro huquq terminlari ham kiritilgan. 2011-yilda huquqshunoslik sohasining yirik mutaxasisslari U.Batler va A.Saidov tomonidan “Ruscha-o‘zbekcha-inglizcha yuridik lug‘at” yaratildi. Lug‘atda ayrim tarixiy terminlar ham berilgan. Bunday terminlar Rim davlati huquqshunosligi bilan aloqador bo‘lib, hozirgi zamon xalqaro huquqida deyarli qo‘llanmaydi. Masalan, *mansipatsiya* (Qadimgi Rimda mulk huquqini tantana bilan boshqa kishiga o‘tkazish tartibi), *talion qonuni* (qadimda insonga nisbatan qo‘llaniladigan jazo prinsipi), *tiara* (qadimgi Rim mifologiyasida qasd oluvchi uch xudodan biri), *glossa* (Rim huquqiga Vizantiya huquqshunoslari bergan sharhlar), *glossator* (eskirgan va kam ishlatiladigan so‘z va iboralar sharhlovchisi; qadimgi qonun va sud qarorlarini talqin qiluvchi shaxs). Lug‘atga nafaqat xalqaro huquq doirasidagi, balki ma’lum bir davlatning milliy huquqshunosligi uchun xos bo‘lgan milliy yuridik terminlar ham kiritilgan. Bunday terminlar lug‘at tarkibida alohida izohlangan.

XULOSA

1. Huquqiy terminologiya o‘z taraqqiyoti davomida paydo bo‘lish, shakllanish va yuksalish davrlarini bosib o‘tdi. Bu davrlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, yuksalish davriga kelib huquqiy terminlar dunyo xalqlari tillariga o‘zlashish jarayoni boshlandi va xalqaro huquqiy termin maqomiga ega bo‘ldi.

2. Dastlabki xalqaro huquqiy terminlar lotin, yunon hamda skandinav tillariga oid so‘zlardan kelib chiqqan. Ayniqsa, qadimgi rim huquqi lotin huquqiy terminlarining butun dunyo miqiyosida keng yoyilishi uchun xizmat qilgan. Shu sababli, xalqaro huquqiy terminlarning aksariyatini lotincha so‘zlar hissasiga

to‘g‘ri keladi. Shuningdek, zamonaviy huquqshunoslikning o‘ziga xos yuridik lug‘atining katta qismini fransuz, ingliz so‘z va iboralar tashkil qiladi.

3. VII asrda xristianlik dinining ommalashishi natijasida ba’zi diniy terminlar xalqaro huquq termini sifatida qo‘llana boshladi. XI-XVII asrlarda esa sud ishlari fransuz tilida olib borilgani bois fransuzcha baynalmilal terminlar salmog‘i ortib bordi. Bu terminlarning deyarli barchasi xalqaro darajada qo‘llana boshladi va ular hozirgacha xalqaro huquqiy teminlarning asosini tashkil qiladi.

4. Turkiy tilshunoslikda huquqiy lug‘atning tarkibiy qismi sifatida xalqaro huquq terminologiyasi shakllanishida arabcha va forscha huquqiy terminlar muhim o‘rin tutadi. Bunday terminlar hozirgi zamon xalqaro huquqida faol qo‘llanadi. Bu esa xalqaro huquqiy terminlar tarkibida arabcha terminlarning o‘ziga xos o‘rni borligini ko‘rsatib beradi.

5. Jahon tilshunosligida xalqaro huquqiy terminlarni qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq qilish usuli yetakchilik qiladi. Ayniqsa, *ingliz-rus, tojik-ingliz, rus-ingliz* tillarining xalqaro huquqiy terminologiyasini qiyosiy jihatdan o‘rganish ancha yuqori darajada. O‘zbek tilshunosligida esa, o‘zbek huquqiy terminlarining *fransuz, nemis, ingliz* tillari bilan qiyoslab o‘rganilgan ishlar mavjud. Biroq bu tadqiqotlarda milliy yuridik tilimizda qo‘llaniluvchi huquqiy terminlar huquqning alohida tarmoqlari bo‘yicha tarmoqlarga ajratilmagan, umumiy tarzda o‘rganilgan.

6. Yevropa tillaridan o‘zlashgan xalqaro huquqiy terminlar o‘zbek yuridik tilida ham ma’lum bir qismni tashkil etadi. Ular o‘zbek tiliga quyidagi usullar yordamida o‘zlashtiriladi:

1) so‘zni o‘zgarishsiz qabul qilish;

2) kalkalash yo‘li bilan so‘z o‘zlashtirish: a) so‘z yasash asosidagi kalkalash b) semantik kalkalash kabi; d) fonetik kalkalash e) birikmali kalkalash.

7. Tadqiqot natijalariga asoslanib, xalqaro huquqiy terminlarning milliy yuridik tilimizga o‘zlashtirishda quyidagi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi: dunyo xalqlari tomonidan yagona tarzda (umumiy shaklda) ishlatilayotgan terminning milliy yuridik tilda aynan qo‘llanishi; ayrim millatlar tilidagina ishlatilayotgan xalqaro huquqiy terminlarga o‘zbekcha muqobil so‘z tanlash; o‘zbek adabiy tili va milliy yuridik tilning o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olish; terminlarga qo‘yiladigan talablarga qat’iy rioya qilish; O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tili va terminologiyasini yuridik til va terminlardan foydalanishning mukammal namunasi sifatida qabul qilish.

8. Xalqaro yuridik tilda qo‘llanayotgan ko‘pgina so‘z va terminlar milliy yuridik tilga kirib boradi va aksincha, milliy yuridik tildagi ayrim so‘z va terminlar xalqaro huquqqa o‘tadi. Huquq sohasiga boshqa tillardan terminlar kirib kelishi yoki ichki imkoniyatlar asosida yangi yuridik terminlarning yasalishi natijasida ham o‘zbek tili leksik qatlami boyib bormoqda, shuningdek yangi huquqiy tushunchalar yuzaga kelmoqda. Bunday so‘zlar dunyo xalqlari bilan aloqa o‘rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

9. O‘zbek leksikografiyasida huquqshunoslikka oid lug‘atlar tuzish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilganligiga qaramasdan, ayrim nodurustliklar mavjud. Jumladan, sohaga oid bir xil xarakterdagi lug‘atlarda bir terminga turlicha ta’rif berish holatlari kuzatiladi. Shuningdek, ayrim huquqiy terminlarning orfografik

jihatdan xilma-xil tarzda ifodalanishi, o‘zbek huquqiy terminologiyasini tartibga solish (unifikatsiyalash va standartlashtirish) da ma’lum muammolarni yuzaga keltiradi.

10. Har bir soha terminologiyasining ilmiy jihatdan tadqiq etilishi jamiyatning mazkur sohaga doir huquqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Shu ma’noda, huquqiy terminlarni faqat umumiy yoki qiyosiy jihatdan emas, balki huquqning alohida tarmoqlari misolida chuqur o‘rganish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 AT THE INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE AND FOLKLORE

INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE, AND FOLKLORE

ISAKOVA MUNISA QAXRAMONJON QIZI

INTERNATIONAL LEGAL TERMS AND THEIR INFLUENCE ON THE NATIONAL LEGAL LANGUAGE

10.00.01 – Uzbek language

DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHILOLOGICAL SCIENCES

Tashkent – 2025

The theme of the Dissertation for the degree of the Doctor of Philosophy (PhD) was registered Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan with the number B2022.2.PhD/Fil2380.

The dissertation has been completed at the Institute of the Uzbek Language, Literature, and Folklore.

The dissertation abstract was published in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Institute of the Uzbek Language, Literature, and Folklore at www.tai.uz and on the "ZiyoNet" information and educational portal at www.ziyonet.uz.

Scientific advisor:	**Kuchimov Shuxrat Norqizilovich** Doctor of Philological sciences, Professor.
Official opponents:	**Yuldashev Ma'rufjon Muhammadjonovich** Doctor of Philological sciences, Professor
	Azimov Inomjon Mamasodikovich Doctor of Philological sciences, Dotsent
Leading organization:	**Samarkand State University**

The defense of dissertation will be held on 9 april at year 2025 at 11⁰⁰ at the session of the Scientific Council DSc.02/30.12. 2019.Fil.46.03 on award scientific degrees at the Institute of the Uzbek Language, Literature, and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. (Address: 100060, Tashkent city, Shakhrisabz street, 5. Tel.: (871) 233-36-50, fax: (871) 233-71-44; email: uztafi@academy.uz)

The dissertation available at the main library of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (registered under number 22). (Address: 100100, Tashkent, Ziyolilar str, 13. Tel.: (99871) 262-74-58.)

The dissertation abstract was distributed on 20 march in 2025.
(Register protocol on № 7 "20" march 2025).

N.M. Mahmudov
Chairman of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Sciences on Philology, Professor

A.M. Hasanov
Secretary of the Scientific Council for awarding academic degrees, Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)

D.S. Xudayberganova
Chairman of the academic seminar under the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Sciences on Philology, Professor

INTRODUCTION (Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In world linguistics, numerous scientific and theoretical studies have been conducted on terminology and terminological units, their role within the lexicon of a language, as well as their semantic, functional, and structural aspects, but certain issues within this scope remain unresolved to this day. In today's globalized world, the rapid development of science and society has led to the emergence of new concepts in the terminology of every field. Consequently, developing modern scientific requirements for terms and organizing them (through unification and standardization) has become a matter of critical importance.

In world linguistics, the integration of legal and linguistic sciences has led to the emergence of the field of jurilinguistics, which necessitates the development of scientific foundations for improving legal language, legislative methodology, and an in-depth study of terminology specific to the field. Moreover, when discussing the terminology of a specific field, the relationship between its terms and other linguistic units within the language of that field, as well as the overall role of terminology in the development of the field's language and the national language, are considered highly significant. In particular, addressing these issues not solely from a linguistic perspective but through an interdisciplinary approach (for instance, linguistics + law, linguistics + diplomatic studies, linguistics + information technology) represents a crucial and pressing task.

In the context of building a legal democratic and free civil society in New Uzbekistan and ensuring human rights and freedoms, the study of the state language, Uzbek legal language, and legal terminology within the framework of the integration of linguistics and legal sciences, based on jurilinguistic requirements, holds significant importance today. In particular, the study of international legal terms, their formation and development, their role and function in contemporary world languages, and, based on this, the development of scientific criteria and principles for their adaptation into the Uzbek legal language, as well as the examination of the influence of international legal terminology on the Uzbek legal language and the national language, represent urgent and significant tasks. As President of the Republic of Uzbekistan, Sh. Mirziyoyev, emphasized in his speech at the solemn ceremony dedicated to the thirtieth anniversary of granting the Uzbek language the status of a state language: “In the context of globalization, preserving the purity of our national language, enriching its vocabulary, creating equivalents for modern terms in various fields, and ensuring their consistent usage remain urgent tasks”[57].

This research contributes, to a certain extent, to the implementation of the tasks outlined in the Presidential decrees and decisions of the Republic of Uzbekistan, including the PF-5850 decree dated October 21, 2019, “On Measures to Radically Enhance the Prestige and Status of the Uzbek Language as the State

[57] Mirziyoyev Sh. Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli // Prezident Sh Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so‘zi, 2019-yil 22-oktyabr.

Language”[58], the PF-6084 decree dated October 20, 2020, “On Measures for the Further Development of the Uzbek Language and Improvement of Language Policy”[59] the PF-6097 decree dated October 29, 2020, “On Approving the Concept for the Development of Science Until 2030”[60] and other regulatory legal documents related to this activity.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. The dissertation was completed in accordance with priority line “Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state, development of innovative economy” of the republican science and technology development.

Level of study of the problem. In world linguistics, the challenges of legal terminology have been researched by Oxford University professors Z. Konrad and H. Kotz[61], Belgian scholar I. Paenson[62] and New York professors M. Bassiouni[63] and J. Dugard[64]. Furthermore, this field has been studied in a monographic framework by Russian scholars such as G. Danilenko, I. Lukashuk, N. Ushakov, S. Khijnyak, N. Mikhaylovskaya, V. Morshchakova, D. Gagikovna, and V. Ikonnikova[65].

In Uzbekistan, issues related to legal language and legal terminology have been studied by linguists and legal scholars such as A. Saidov, F. Bakirov, G. Ahmedov, G. Satimov, G. Sarkisyants, L. Boyko, M. Qosimova, L. Karimova, Sh. Kuchimov, G. G‘ulomova, O. Tursunova, N. Jumaxo‘jayev, X. Xayitov, R. Mirzayev, P. Nishonov, E. Sobirova, and J. Urozov[66]. A study on courtroom

---

[58] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-okytabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son farmoni.

[59] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni

[60] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son farmoni.

[61] Konrad Z and Kotz H. An introduction to comparative law. – New-York: Oxford University press, 1998. – 744 p.

[62] Paenson I. Manual of the Terminology of Public International Law(Peace) and International Organizations. –Brussels, 1983. – 894 p.

[63] Bassiouni M. International extradition: United States law and practice. – New York: Oceana Publications, 1996. –1328 p.

[64] Dugard J and Christine W. International criminal law and procedure. – New York: Aldershot, 1996. – 524 p.

[65] Даниленко Г. Обычай в современном международном праве. – М.: Наука, 1988. – С. 190; Лукашук. И. Нормы международного права в международной нормотивной системи. – М.: Спарк 1997. – С. 332; Ушаков.Н. Проблемы теории международного права. – М.: Наука, 1988. – С.186; Хижняк С. Юридическая терминология: формирование и состав. – М.: Наука, 1997. – С. 136; Михайловская Н. Формировании и функционировании юридической лексики // Терминология и культури речи. – М.: Наука, 1981. – С. 110-122; Морщакова Т. Семантические характеристики терминов уголовного закона (на материале русского немецкого и английского языков): Авторефер. дисс.... канд. филол. наук. – М., 1992. – С. 197; Гагиковна Д. Динамика становления и развития терминосистемы международного гуманитарного права (на материале английского и русского языков): Авторефер. дисс. … канд. филол. наук. – М., 2020. – С. 185; Иконникова В. Особенности семантики английских юридических терминов в текстах международного конрактного права. Авторефер. дисс. … канд. филол. наук. – М., 2005. – С. 148.

[66] Саидов А., Саркисянц Г. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Адолат, 1994; Саидов А., Саидова Л., Кўчимов Ш., Қосимова М. Қонун ва тил. – Тошкент: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1997; Бакиров Ф. Юридик терминлар луғати. – Тошкент, 1959; Ғ.Аҳмедов ва бошқ. Юридик атамалар ва иборалар луғати. – Тошкент: Адолат, 1993; Сатимов Ғ. Инглизча-русча-ўзбекча ҳуқуқий атамалар луғати. – Тошкент: Адолат, 1999; Бойко Л. Законодательная техника (теория и практика): Автореф. дисс. … канд. юридик. наук. – Тошкент, 1984; Касымова М. Структурно-системные особенности юридической терминологии узбекского

speech and its lexicon has been conducted by Q. Muydinov[67]. Research on the role of jurilinguistics in legislative drafting has been carried out by X. Hayitov[68], while K. Qayumova[69] has authored a specialized study on the predicative features of legal documents. Research on conducting office work in the state language, analyzing legal documents based on linguistic knowledge, and examining their language and style has been carried out by M. Aminov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov, N. Mahmudov and Y. Odilov[70].

